AEROPORTLARNING MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIRI: SAMARQAND XALQARO AEROPORTI MISOLIDA

Xamroyeva Muxayyo Baxrilloyevna

“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Maqolada yangi aeroport infratuzilmasi mintaqaviy turizmga qanday ta'sir qilishini Samarqand Xalqaro Aeroporti misolida o'rganiladi. Yangi aeroport terminali 2022 yilda ishga tushurilgan va unda sayyohlar uchun alohida qulayliklar yaratilgan. Maqolada ushbu aeroport faoliyatining ichki va xalqaro turizmga ta’siri tadqiq etiladi.

Kalit so’zlar: Samarqand, aeroport, turizm, yangi terminal, sayyohlar

Transport infratuzilmasi hududlarni bir-biriga bog'lab, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi. Yo'llar, temir yo'llar va aeroportlar uchun qilingan xarajatlarlar insonlar uchun transport xarajatlarini kamaytiradi va shuning bilan birga yangi korxonalar va ish o'rinlari yaralishiga sabab boladi. Bundan tashqari, infratuzilma xalqararo va ichki turizm oqimining asosiy omili hamdir. Yo'llar, temir yo'llar va aeroportlar qulay va arzon sayohatlarni shaklantiririshga xizmat qilganda o’sha hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi keskin ortadi. Bugungi kunda xalqaro sayyohlarning 70% dan ko’pi o'z manzillariga yetib borish uchun havo yo’lini tanlashadi [Air Transport Action Group, 2017]. Har bir turist byudjetining asosiy ikkita komponenti bu - turar joy va aviabiletdir [Asaf va Josiassen, 2012]. Sayyohlar turar joy va ular uchun muhim bo’lgan qulayliklar, teatrlar va ko'rgazmalar, ko'ngilochar bog'lar va boshqalar kabi turistik mahsulotlarga xarajat qiladilar va ularning bu sohalarga sarflagan xarajatlari ko'pincha mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini yaxshilanishiga olib keladi. Quyida Samarqand Xalqaro aeroportining yangi terminali ishga tushishining shahar turizmiga qanday ta’sir qilganini ko’rib chiqamiz.

Samarqand Xalqaro Aeroporti tarixi va bugungi holati

Samarqand aeroporti o’tmishi o’tgan asrning birinchi choragiga borib taqaladi. Bino 1925 yilda boshlangan va 1927 yilda transport va fuqarolik aviatsiyasi uchun yangi havo stantsiyasi ochilgan. Ammo biroz vaqt o’tib, 1940-yillarning ikkinchi yarmida u qadimgi Afrasiyob tepaliklari yonidagi yangi joyga ko'chirilgan. XX asrning ikkinchi yarmida Samarqand havo uzellari Osiyodagi eng yiriklaridan biri edi. Moskva, Leningrad, Toshkent kabi qator ittifoq Respublikalarining poytaxtlari va kurort shaharlariga parvozlar amalga oshirilgan.

Mustaqillik yillarida aeroport rivojlanishda davom etdi. Aeroportda kapital rekonstruktsiyasi amalga oshirilgandan so’ng, uning uchish-qo'nish yo'lagining o'lchamlari 3160x60 metrga yetdi. Shundan so’ng u barcha turdagi og'ir samolyotlarni qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ldi va 2004-yilda Samarqand Xalqaro aeroporti “100 000 yo‘lovchi tashish hajmi” nominatsiyasi bo‘yicha MDH davlatlari ichida eng yaxshisi deb topildi. 2022 yilda qurilishi tugallanga yangi terminal ishga tushgandan so’ng, uning faoliyati butkul yangicha ijobiy tus oldi va shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining keskin oshishiga xizmat qila boshladi. O’zbekiston tarixidagi birinchi davlat va xususiy sektor sherikchiligida faoliyat olib boradigan bu aeroport terminalini “Air Marakanda” boshqaradi. Bugungi kunda ushbu aeroportdan dunyoning qator shaharlariga, xususan, Istanbul, Dubay, Abu Dabi, Quvayt; MDHning Moskva, Sank Peterburg, Yekaterenburg, Minvodi, Baku, Ufa, Almata kabi shaharlarga to’g’ridan to’g’ri parvozlar amalga oshirilmoqda.

Samarqand Xalqaro Aeroportidan 2022 yil 01.01.2022 yildan 28.04.2022 vaqt mobaynida jami 51549 nafar sayyoh tashrif buyurgan.

Jami: 51549				
AVSTRALIYA	4		MONGOLIYA	8
AVSTRIYA	15		MOLDOVA	58
AZARBAYJON	17		MEKSIKA	1
ARMANISTON	16		LYUKSEMBURG	2
AFG’ONISTON	4		LITHUANIA	4
BELORUSIYA	53		LATVIYA	1

BELGIYA	26		KIRG’IZISTON	43
BOSNIYA	1		JANUBIY KOREA	23
BUYUK BRITANIYA	17		XITOY	5
VENGRIYA	1		KANADA	17
GERMANIYA	213		KOZOG’ISTON	923
FRANSIYA	116		YEMEN	1
ISPANIYA	279		ITALIYA	109
YAPONIYA	10		IRLANDIYA	7
GRETSIYA	38		ERON	28
TURKIYA	3525		IORDANIA	2
ROSSIYA	8079		HINDISTON	8
SHVETSIYA	18		ISROIL	51
CHEXIYA	21		DENMARK	11
UKRAINA	100		GEORGIA	8
PORTUGALIYA	11		GRETSIYA	38
POLSHA	17		VENESUELA	3
POKISTAN	7		RUMANIYA	27
UMMAN	3		AQSH	93
BAA	10		SERBIYA	11
NORVEGIYA	15		SURIYA	3
YANGI ZELLANDIYA	1		TURKMANISTON	20
NIDERLANDIYA	29		TOJIKISTON	15533

Manba: Samarqand Xalqaro Aeroprtidan olingan 2022 yilning yakuniy hisoboti bo’yicha Samarqand Xalqaro aeroporti 493 417 ming yo’lovchiga xizmat ko’rsatgan. 2019 yil bilan taqqoslaganda bu ko’rsatkich 12 406 taga ko’p. [Samarkand.Airport, 2023]

Samarqand Xalqaro Aeroportida turistlar uchun yaratilgan sharoitlar:

Aeroportlar har bir mamlakatning kirish darvozasi hisoblanadi. Aynan ana shu yerdan qanday kutib olinishi va kuzatilishi usha yurtning mehmondo’stligini qay daraja ekanligini bir qarashda namoyon etadi. Turistlarning mamlakatga tashrif

buyurish tajribasi o’sha joy aeroportining xizmat ko'rsatish sifati imidjiga sezilarli darajada ta'sir qiladi (Kastilo-Manzano, 2010). Qisqa qilib aytganda, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar eng avvalo aeroportlardagi qulayliklarga e’tiborini qaratadi. Ularning stressiz bu joyni tark etishlari qilgan sayohatlari yoqimli bo’lganligiga to’g’ridan to’g’ri ta’sir etadi. Agar ular aeroportda muammolarga duch kelsalar yoki xizmat ko’rsatishdan norozi bo’lar ekan, bu ularning ushbu mamlakatga qilgan sayohati haqida salbiy tushunchani keltirib chiqarishi mumkin va bu esa ularning sayohatdan qoniqmaganlik xissini keskin oshiradi va kelajakda turistik oqimning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham Samarqand Xalqaro Aeroportida yo’lovchilarga sifatli xizmat ko’rsatish, ularga jarayonlardan o’tish uchun ko’plab qulayliklar yaratilgan. Endilikda ular o’zlari mustaqil ro’yxatdan o’tishlari, alohida tashkil etilgan yo’laklar tufayli tez va oson bagajlarini topshirishlari yoki olishlari mumkin. Aeroportda turistlar uchun turizm axborot markazining ochilishi bu yerga tashrif buyurayotgan turistlar uchun ko’pgina qulayliklar tug’diradi. Bu turizm axborot markazi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 24-dekabrdagi “Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni “Samarqand – Yangi O’zbekistonning turizm darvozasi” konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida”gi PQ-455-son Qaroriga asosan tashkil etilgan [Samarkand Tourism, 2023]. Bundan tashqari shaharga tashrif buyuruvchilar uchun taksi yoki mashina buyutma qilish shaxobchasi, mobil telefon uchun O’zbekiston hududida ishlatiladigan SIM kartalar olish, valyuta ayirboshlash uchun bank va shunga o’xshash ko’pgina sharoitlar yaratilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar nafaqat bir tomonlama, balki shu bilan birgalikda aeroport infrastrukturasini takomillashtirish bilan birga olib borilayotganligi sababli, yaqin kelajakda O’zbekistonda turizmni yanada rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Air Transport Action Group (2017) https://www.icao.int/sustainability/Documents/AVIATION-BENEFITS-2017-web.pdf

2. Asaf va Josiassen (2012) https://www.academia.edu/954678/ The_Operational_ Performance_of_UK_airlines

3. Samarkand.Airport (2023)

4. Kastilo-Manzano (2010) Determinants of commercial revenues at airports: lessons learned from Spanish regional airports Tourism Manag.